

QORIN O'ZANINING BARIANT ANATOMIYASI

SHeraliev Q.S.

Alfraganus universiteti tibbiyot kafedrası, anatomiya moduli dotsenti

E-mail: kambaralisheraleiev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548820>

Dolzarbligi. Qorin o'zanini turli tarmoqlanishi bilish u qon bilan taminlaydigan meda, taloq, meda osti bezi sohasida o'tkaziladigan jarrohlik amaliotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni oldini olishga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Me'da, taloq, me'da osti bezi sohasida o'tkaziladigan jarrohlik amaliyotida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan qorin o'zanini variant anatomiyasini o'rganish.

Material va uslublar. Etakchi jahon tibbiyot oliygohlarining chop etgan adabiyot ma'lumotlari va internet ma'lumotlari bilan ishlash.

Qorin o'zani uzunligi taxminan 12,5–20 mm va diametri 9 mm bo'lgan qorin aortasining keng va qisqa shoxchasidir. U qizilo'ngachni pastki qismi, oshqozon, jigar, o't pufagi, o'n ikki barmoqli ichak, qisman oshqozon osti bezi, katta чарвини va taloqni qon bilan ta'minlaydi. Qorin o'zani ko'p hollarda uchta yirik tomirga bo'linadi: chap oshqozon arteriyasi, umumiy jigar arteriyasi va taloq arteriyasi. Bu variant haqiqiy tripod deb ataladi. Trifurkatsiyaning yana bir variantida qorin o'zani ikkita shoxga, ko'pincha taloq va umumiy jigar arteriyasiga bo'linadi va uchinchi arteriya chap oshqozon arteriyasi odatda, qorin o'zanidan biroz oldinroq ajralib chiqadi. Qorin o'zani 88,04% hollarda uchta arteriyaga klassik ajralishi kuzatiladi. "Haqiqiy uch oyoq" va "yolg'on uch oyoq" shoxlanishi mos ravishda 20,65% va 67,39% hollarda kuzatiladi. Qorin o'zaning ych oyoqqa ajralishidan tashqari 11,96% holda atipik, bifurkatsiya, kvadrifurkatsiya va pentafurkatsiya tarmoqlanishi kuzatiladi. Qorin' arteriyasining bifurkatsiyasida (3,26%) taloq arteriyasi va umumiy jigar arteriyasi bevosita qorin o'zanidan, chap oshqozon arteriyasi esa qorin aortasidan kelib chiqadi.

Qorin o'zanining kvadrifurkatsiyasida (5,43%) qorin o'zani chap oshqozon arteriyasiga, taloq arteriyasiga, umumiy jigar arteriyasiga va o'ng pastki diafragma arteriyasiga ajralishi yoki chap oshqozon arteriyasiga, taloq arteriyasiga, umumiy jigar arteriyasiga va chap pastki diafragma arteriyaga ajralishi mumkin. Qorin o'zanini 1,08% hollarda beshta tarmoqqa ajralishi kuzatiladi: umumiy jigar arteriyasiga, taloq arteriyasiga, chap oshqozon arteriyasiga, o'ng pastki diafragma arteriyasiga va chap pastki diafragma arteriyasiga.

Hulosa. Qorin o'zaning shoxlanish shakllarining xilma-xilligi uning tarmoqlari tomonidan qon bilan ta'minlanadigan organlarga jarrohlik aralashuvni murakkablashtirishi mumkin.